


2019 yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdag'i xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'limganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtida viloyatda 22,0 mingga yaqin korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 13,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 62,6 % ni tashkil etdi.

2019 yil 1 fevral holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyligi sonining 9,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 fevral holatiga ko'ra, ularning ulushi 66,4 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 fevral holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (37,4 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 581,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 90,4 mlrd. so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (25,4 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (11,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (31,0 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlari (1,8 mlrd.so'm), shaxsiy xizmatlar (3,1 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.

2018-2019 yil yanvar oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 164,9 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 117,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 53,0 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 32,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.


**2018 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	581,3	108,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	32,6	98,1
moliyaviy xizmatlar	84,1	153,5
transport xizmatlari	129,3	101,7
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	122,9	100,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	17,0	97,7
savdo xizmatlari	190,3	103,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	19,0	102,9
ta'lif sohasidagi xizmatlar	12,7	114,4
sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	6,9	118,3
ijara xizmatlari	17,3	112,3
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,5	103,5
shaxsiy xizmatlar	22,3	100,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6,4	107,3
boshqa xizmatlar	21,9	102,9

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (153,5 %), sog'lijni
saqlash sohasidagi sohasidagi xizmatlar (118,3 %), ta'lif sohasidagi

xizmatlar (114,4 %), ijara xizmatlari (112,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan kamayish sur'ati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (98,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (97,7 %) kuzatildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,9 %), shaxsiy xizmatlar (100,4 %) va transport xizmatlari (101,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmining uchdan bir qismiga yaqinini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar oyida uning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,6 %) egallaydi.

**2019 yil yanvar oyida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi**




2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 190,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar oyida uning ulushi 84,6 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,4 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,0 % ni egallaydi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 84,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 153,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (94,4%) tashkil etadi.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar oyida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 12,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 17,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 97,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,8 % ulush bilan

yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,2 % ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har yilda o'sishi kuzatilmoxda. 2019 yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 182,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,3 ming so'mga oshdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

75-221-44-32

71-230-84-03